

**BUXORO VILOYAT BOLALAR KUTUBXONASI  
(USLUBIY BO'LIM)**

“Oybekning munavvar yodi”

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tavalludining 120 yilligiga atab  
(Metodik qo'llanma)



Uslubiy bo'lim tomonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi: M.Xayrullayeva

Muharrir: U.Aripova

### “Oybekning munavvar yodi” Metodik qo'llanma

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tavalludining 120 yilligiga bag'ishlangan ushbu metodik qo'llanma shoir hayoti va ijodi, adabiy merosi bo'yicha axborot-kutubxona muassasalarida o't-kaziladigan bilimdonlar bellashuvi, she'rxonlik tanlovi hamda tadbirlar turkumi tavsiya tarzida berilgan.



Talant qanchalik katta, qanchalik qudratli bo‘lmasisin, har nechuk yuzada bo‘lmaydi, konga o‘xshash- yerning qa’rida bo’ladi. Bu kon talantni qazib olish uchun avvalo katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch-g’ayrat, bularning ustiga dard bo‘lishi kerak.

Katta talant egasi Oybekda mana shu xislatlarning hammasi mavjud. Oybek mana shu xislatlari bilan xalqimizning ma’naviy xazinasiga katta boylik qo’shdi.

Yozuvchi umri yil bilan o‘lchanmaydi, ijodiy faoliyatning samarasini bilan o‘lchanadi. Oybek 400 yilga teng keldigan 40 yillik faoliyatining bir lahzasini ham samarasiz o’tkazgani yo’q. Oybek bu jihatdan ham hozirgi va kelajak adabiy avlod qarshisida ustod bo‘lib gavdalanadi.

### **Abdulla Qahhor**

XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qushgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905 yil 10 yanvarda Toshkent shahrida bo‘zchi oilasida dunyoga keldi. Oldin o‘rtta maktabda, 1922—1925 yillarda esa Toshkent ta’lim va tarbiya texnikumida ta’lim oldi. So‘ngra O‘rtta Osiyo Davlat dorilfununining ijtimoiy fanlar fakultetida tahsil ko‘rdi. 1930 yili O‘rtta Osiyo Davlat dorilfununini tugatib, oliy maktablarda siyosiy iqtisoddan dars berdi.

Oybek adabiyotga 1926 yili chop etilgan «Tuyg‘ular» she’riy to‘plami bilan kirib kelgan. Shoirning «Dilbar— davr qizi» (1931), «O‘ch» (1932), «Baxtigul va Sog‘indiq» (1933), «Temirchi Jo‘ra» (1933) dostonlari o‘z davrining she’riy solnomalaridir. U tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratgan. Oybek she’riyati nihoyatda go‘zal bo‘lib, o‘zining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasviriy vositalarda yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Oybek mohir shoir bo‘lgani kabi yetuk romannavis ham edi. U yaratgan «Qutlug‘ qon», «Navoiy», «Ulug‘ yo‘l», «Oltin vodiydan shabadalar», «Quyosh qoraymas» kabi epik polotnolar o‘zbek realistik romanchiligi taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etadi.

O‘zbek xalqining 1916 yilgi milliy-ozodlik qo‘zg‘oloni yozuvchining «Qutlug‘ qon» (1940) romanida zo‘r mahorat bilan realistik ifodalangan bo‘lsa, «Navoiy» (1944) romanida o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib, ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratdi. Uning «Oltin vodiydan shabadalar» (1949) asarida xalqimizning urushdan so‘nggi davr yaratuvchilik mehnati, «Quyosh qoraymas» (1958) romanida ikkinchi jahon urushi fojealari o‘z ifodasini topgan. Adibning «Ulug‘ yo‘l» (1977) asari esa «Qutlug‘ qon» romanining mantiqiy davomi bo‘lib, unda yozuvchi xalq milliy ongingin shakllanishini ko‘rsatishga intilgan.

Oybek 1949 yilda Pokistonga sayohat qilgan. Adib qardosh xalq hayotini, fikr va tuyg‘ularini, kurash va intilishlarini «Pokiston xotiralari» ocherklari, qator she’rlari, «Zafar va Zahro», «Haqgo‘ylar» dostonlarida, nihoyat, «Nur qidirib» qissasida tasvirlagan.

Adibning avtobiografik qissasi — «Bolalik» 1963 yilda yaratilgan. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso, ya’ni Oybekning o‘zidir.

Oybek iste’dodli shoir, yirik nosir bo‘libgina qolmay, mashhur olim, publitsist, tanqidchi va tarjimon, davlat va jamoat arbobi hamdir. O‘zbek kitobxonasi Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she’riy romani, Lermontovning «Maskarad», Molerning «Tartyuf» dramalari, shuningdek, antik adabiyoti namunalarini Oybek tarjimasida o‘qishga muyassar bo‘lgan.

Oybek 1943 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a’zo etib saylangan va 1950 yilgacha akademiyada ijtimoiy fanlar bo‘limining raisi lavozimida ishlagan. U yuqori malakali filologlar tayyorlashga katta hissa qo‘sghan ustozdir.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1965), Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori unvonlariga sazovor bo‘lgan.

Yozuvchi asarlari o‘zbek adabiyotining jahonlararo shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o‘lmas asarlari ma’naviy xazinamizdan mustahkam o‘rin oldi va umumxalq mulki bo‘lib qoldi.

Oybek 1968 yil 1 iyulda 63 yoshida vafot etgan. Vafotidan so‘ng uning 20 jildlik to‘la asarlari majmuasi nashr etilgan. «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan (2001).

## She’riyati

Oybek adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. „Cholg‘u tovushi“ degan birinchi she’ri 1922-yil „Armug‘on“ jurnalida bosilgan. Bu vaqtida u Cho‘pon, shuningdek, „yosh usmonlilar“ she’riyati ta’sirida bo‘lib, ular ruhidagi she’rlaridan iborat „Tuyg‘ular“ (1926-yil) va „Ko‘ngil naylari“ (1929-yil) to‘plamlarini e’lon qilgan. Oybek dastlabki ijodida davrning o‘tkinchi mavzulariga bag‘ishlangan sarbast she’rlar yaratgan, ularning aksariyati „Mash’ala“ (1932-yil) to‘plamidan o‘rin olgan. Keyinchalik shoir lirik tuyg‘u va kechinmalar tasviriga katta e’tibor berib, „ko‘ngil lirkasi“ namunalarini yaratishga intildi. Uning bu boradagi izlanishlari, ayniqsa, „Yevgeniy Onegin“ she’riy romanini tarjima qilishi (1936-yil) jarayonida orttirgan tajribasi tufayli va Aleksandr Pushkin asarlaridagi lirizm ta’sirida yaxshi samaralar berdi. Oybekning „Chimyon daftari“ turkumiga kirgan, o‘zbek tabiatining fusunkor tarovati va betakror ranglarini o‘ziga simirgan she’rlari nafaqat shoir she’riy ijodining, balki umuman o‘zbek lirkasining shoh namunalaridan biri bo‘ldi. Shoir bu she’rlari bilan o‘zbek she’riyatiga oybekona nafis lirizmni olib kirdi, nozik tuyg‘u va kechinmalarni tasvirlash madaniyatini yanada mukammallashtirdi, lirik she’riyat tilini nafosat yog‘dulari bilan jilolantirib yubordi.

## Dostonlari

Bir tomondan, lirik harorat, ikkinchi tomondan, epik ko‘lam Oybek she’riyatiga xos xususiyatlardir. U lirik she’riyat bilan bir qatorda dostonnavislik sohasida ham izlanishlar

olib borib, „Dilbar — davr qizi“ (1932), „O‘ch“ (1933), „Baxtigul va Sog‘indiq“ (1934), „Qahramon qiz“ (1936), „Gulnoz“, „Kamonchi“, „Navoiy“ (1937) singari dostonlarni yozdi. Shoir bu dostonlarida o‘z davrining qahramoni obrazini yaratish va shu davrning muhim ijtimoiy-ma’naviy masalalarini ko‘tarish bilan birga tarixiy o‘tmish mavzuiga ham murojaat etdi. Oybekning liro-epik she’r Sovet davlatining adabiy-madaniy siyosati natijasida 1937-38-yillarda yozuvchilar va ularning asarlariga vulgar sotsiologizm nuqtai nazaridan yondashish tamoyili kuchaydi. Oybekning „Chimyon daftari“ turkumiga kirgan lirik she’rlari burjua she’riyati namunalari, deb baholandi. Davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bu harakat oqibatida, boshqa shoirlar qatori, Oybek ham, „ko‘ngil she’riyati“ga tamomila zid o‘laroq, „fajdanlik she’riyati“ deb atalgan she’riyat namunalarini yaratishga majbur bo‘ldi. Shunga qaramay, Oybekning ilm-fan va texnikani egallashga da’vat etuvchi hamda vatanparvarlik va mehnatsevarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan „O‘zbekiston“, „Dneprostroy“, „Fanga yurish“, „Raisa“, „Qizlar“ singari o‘nlab she’r va dostonlari 30-40-yillar o‘zbek she’riyatida muhim voqeа bo‘ldi. Oybek 40-yillar oxiri - 50-yillar boshlarida „Qizlar“ (1947) dostonidan tashqari, „Hamza“ (1948), Pokiston taassurotlari asosida „Zafar va Zahro“ (1950) va „Haqgo‘ylar“ (1952) dostonlarini yaratdi. 60-yillarda shaxsga sig‘inish fojialari fosh etilib, sobiq sovet mamlakatida „xrushchyovcha“ harorat jilvalari ko‘ringanda, Oybek xastaligiga qaramay, yana „sof lirika“ning guzal namunalarini taqdim etadi, Xirosima fojiasiga bag‘ishlangan „Davrim jarohati“ (1952), „Guli va Navoiy“ (1968) dostonlarini yozish bilan birga Amir Temur va Bobur haqidagi lirik dostonlarni yozishga kirishadi. Shoir uzining bu asarlari bilan 60-yillar o‘zbek she’riyatida yangi badiiy tafakkurning boshlanishi va qaror topishiga muhim hissa qo‘shadi.

## Nasriy me’rosi

Oybekning nasriy merosi 5 roman („Qutlug‘ qon“, „Navoiy“, „Oltin vodiyidan shabadalar“, „Quyosh qoraymas“ va „Ulug‘ yo‘l“), 4 qissa („Shonli yo‘l“, „Nur qidirib“, „Bolalik xotiralarim“ va „Bola Alisher“) hamda bir qancha hikoya va ocherklardan iborat.

Oybekning roman janridagi dastlabki tajribasi — „Qutlug‘ qon“ asari yozuvchi hayotining eng tahlikali kezlarida , 1938-yilda, qisqa muddatda yozilgan va 1940-yilda nashr etilgan. Yozuvchining bolalik xotiralari bilan to‘yingan bu asarda o‘zbek xalqining Birinchi jahon urushi arafasidagi mashaqqatli hayoti qalamga olingan. Bu davrda, bir tomonidan, mustamlakachilik siyosati, ikkinchi tomonidan, o‘lkaga kirib kela boshlagan kapitalistik munosabatlar tufayli mehnatkashlar ommasi g‘oyat qashshoqlashgan edi. Shunday vaqtda sabr kosasi to‘lgan xalqning norozilik namoyishi bilan chiqishi yoki qo‘zg‘olon ko‘tarishi tabiiy edi. Chor hokimiyatining O‘rta Osiyo aholisini mardikorlikka olish to‘g‘risidagi farmoni 1916-yil qo‘zg‘olonining gurullab yonishi uchun bir turtki bo‘ldi. Oybek romanda Yo‘lchi boshlik, mehnatkashlar, Mirzakarimboy boshliq boylarning o‘zaro munosabatlarini tasvirlash orqali mazkur qo‘zg‘olonning kelib chiqish sabablarini

badiiy tahlil etdi. Jamiyatning shu davrdagi qutblashgan holatini ta'kidlab ko'rsatish maqsadida va sovet mafkurasining talabi bilan boylar obrazini, ayniqsa, Mirzakarimboy obrazini yaratishda qora bo'yoqlardan ko'proq foydalandi. 1937-yil tegirmonidan arang omon qolgan adibning romanni busiz nashr etishi amrimahol edi. Oybek bu asari bilan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Sadriddin Ayniy boshlab bergan tarixiy romannavislik an'anasi rivojlantirib, uni mehnatkash xalq harakterini o'zida mujassamlantirgan Yo'lchi, Gulnor kabi qahramonlarning yorqin obrazlari bilan boyitdi. „Qutlug‘ qon“ o'zbek adabiyotidagi badiiy jihatdan eng yuksak romanlardan biridir.

## “Navoiy” romani

Oybek shoir, nosir, adabiyotshunos olim sifatida ham Navoiy hayotiga ko'p bor murojaat etgan. Uning 1942-yil Ikkinchiji jahon urushining qizg'in bir paytida „Navoiy“ romanini yozib tugatgani tasodifiy emas. Nafaqat ulug‘ shoir, balki 15-asrdagi Xuroson hayotini ham puxta o'rgangan adib bu asarda Navoiyning shoir va inson sifatidagi gumanizmi — insonparvarlik mohiyatini katta mahorat bilan gavdalantirib bergen. Oybek Navoiy obrazini 15-asr Xurosonida ro'y bergen muhim tarixiy voqealar fonida gavdalantirar ekan, shu davrda Temuriylar davlatini harakatga keltirgan, keyinchalik esa uni tanazzulga olib kelgan kuchlar va ularning o'zaro kurashini xaqqoniy aks ettirgan. Oybek mazkur asari bilan o'zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrini boshlab, uning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. „Navoiy“ romani keyinchalik o'zbek adabiyotida „Ulug‘bek xazinasi“, „Ko'hna dunyo“ (Odil Yoqubov), „Yulduzli tunlar“, „Avlodlar dovonii“ (Pirimqul Qodirov) singari tarixiy-biografik romanlarning maydonga kelishiga zamin hozirladi.

## “Quyosh qoraymas” romani

Oybekning nasriy asarlari orasida o'zbek xalqining Ikkinchiji jahon urushidagi jasorati tasviriga bag'ishlangan „Quyosh qoraymas“ (1943-1959) romani alohida e'tiborga loyiq. Adib mazkur romanini garchand G'arbiy frontga qilgan safaridan qaytib ozo boshlagan bo'lsada, urush to'g'risidagi dahshatli haqiqatni aytish iloji bo'lmagani uchun, uni 50-yillarda — xastalik paytida yozib tugatdi. Oybek Bektemir va uning ikki jangovar do'stining obrazini yaratish orqali Sovet davlatining urushga tayyorgarliksiz kirgani va sarkardalarning qo'pol xatolari tufayli millionlab kishilar, shu jumladan, o'zbek jangchilarining „to'p yemi“ bo'layotgani haqidagi haqiqatni badiiy mujassamlantirib berdi.

Adib „Oltin vodiyidan shabadalar“ (1949) romanida urushdan keyingi davr qahramoni obrazini, „Qutlug‘ qon“ romanining davomi sifatida yozilgan „Ulug‘ yo'l“ (1967) asarida esa Yulchi va Gulnorlarning 20-yillardagi izdoshlari obrazini yaratishga intildi.

Oybek qalamiga mansub roman va qissalar qaysi davr hayotidan olingan bo‘lmasin, adib shu davr hayotini mukammal o‘rgangan, ayniqsa, tarixiy davr va tarixiy shaxs hayoti bilan birlamchi manbalar asosida yaqindan tanishgan yozuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Oybekning nasriy asarlariga xos muhim xususiyatlardan yana biri shundaki, u asar qahramoni yoki tarixiy shaxsni Vatan va xalq manfaatlari yo‘lida kurashuvchi, mehnatkash xalq orzu-armonlarining ro‘yobga chiqishi yo‘lida zahmat chekuvchi siymo sifatida tasvirlaydi.

## Dramaturgiya

Oybek ozgina bo‘lsada, o‘z kuchini dramaturgiyada ham sinab ko‘rdi. U urush yillarida **Chingizzon** istilosiga qarshi ko‘tarilgan xalq harakatlaridan biriga murojaat etib vatandoshlarida fashizmga qarshi kurash maylini rag‘batlantiruvchi „Mahmud Tarobiy“ opera librettosini yozdi (1944) va shu mavzu bo‘yicha drama teatrлari uchun „G‘alvirchi“, rus adibi va adabiyotshunos A. Deych bilan hamkorlikda esa rus tilida „Xalq qalqoni“ pyesalari ustida ishladi. Oybek bu asarlarida ham tarixiy jarayon qonuniyatlarini yaxshi bilgan, tarixga xalq manfaatlari nuqtai nazaridan yondashuvchi yirik olim sifatida namoyon bo‘ldi.

## Maqolalari

Oybek adabiy faoliyatining muhim qismini adabiyotshunoslikka oid tadqiqot va maqolalar tashkil etadi. O‘zbek xalqi tarixi va o‘zbek mumtoz adabiyotining ulkan bilimdoni Oybek o‘zining adabiy-tanqidiy faoliyatida adabiyotimizning eng qadimgi davridan to o‘tgan asrning 60-yillariga qadar kechgan shakllanish va taraqqiyot yo‘liga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar e’lon qildi. Bu maqolalarning katta bir qismi Alisher Navoiy yashagan davr, shoir hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular keyinchalik Oybekning „Navoiy gulshani“ maqolalar to‘plamini tashkil etdi. Bu maqolalar navoiyshunoslikning o‘zbek adabiyotshunosligining muhim bir sohasi sifatida shakllanishi va rivojlanishiga hissa bo‘lib qo‘sildi. Shu bilan birga Oybek Yozuvchilar uyushmasi va Fanlar akademiyasi gumanitar bo‘limining raisi sifatida Navoiyning 500 yillik yubileyini tashkil etish va o‘tkazishga rahbarlik qildi. A. Deych bilan birga rus tilida Navoiyga bag‘ishlangan turkum maqolalar chop etdi (bu maqolalar mualliflarning 1968-yilda nashr etilgan „Alisher Navoiy. Literaturno-kriticheskiy ocherk“ kitobidan o‘rin olgan).

Yirik adabiyotshunos Oybek „Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li“ (1935) monografiyasи va boshqa maqolalarida 20-asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyoti muammolarini, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy va Maksim Gorkiy singari rus adabiyoti namoyandalarining o‘zbek yozuvchilariga ta’siri masalalarini yuqori ilmiy-nazariy saviyada o‘rgandi. Mumtoz va zamонавиy o‘zbek adabiyoti yutuqlarini qardosh xalqlarga tanishtirishda Oybekning rus tilidagi maqolalari ayriqcha ahamiyatga molik.

## Tarjimalari

Serqirra ijod sohibi Oybek jahon va rus adabiyotining eng yuksak namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilib, Cho'lpion va Abdulla Qodiriy asos solgan o'zbek tarjima matabini o'zining yuksak darajadagi tarjimalari bilan boyitdi. O'zbek kitobxoni Oybek tarjimasi orqali Rim adabiyoti namunalari, J. B. Molyerning „Tartyuf“, Aleksandr Pushkinning „Yevgeniy Onegin“, Mixail Lermontovning „Maskarad“, „Dovud Sosunli“ arman eposi, G. Geyne, I. A. Krilov, V. G. Belinskiy, E. Verharn va boshqalarning asarlari bilan tanishdi.

## Xotira

Oybek o'zining rang-barang ijodi va ulkan jamoat arbobi sifatidagi faoliyati bilan o'zbek xalqining madaniy yuksalishiga katta hissa qo'shdi. 1980-yilda adib yashagan uyda Oybek uy-muzeyi tashkil etilgan va unga haykal o'rnatilgan. Toshkentdagi mifik, xiyobon va metro bekatlaridan biri Oybek nomi bilan atalgan, Termiz davlat universiteti, Toshkent viloyatidagi jamoa xo'jaligiga Oybek nomi berilgan. Oybek vafotidan keyin „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan taqdirlangan(2001)

## Shoirning she'rlari

### Erkin qush

Malak kabi go'zal bir qush  
Tol shoxiga kelib qo'ndi.  
Dedim: «Qushcha, yonimga tush,  
Yosh ko'nglimga alam to'ldi.

Bir oz kuyla, she'ring so'yla,  
Mahzun ruhim qanot qoqsin  
Sirli, go'zal nag'malaring  
Amalimning shamin yoqsin».

«Yondim erkning savdosida,  
Qafaslardan juda bezdim,  
Boqchalarining hijronida  
Yuragi qon tutqun edim.

Qo'y, chaqirma ko'kka uchay,  
Erkinlikka endi chiqay:  
Bahor kelib, har yoq kului,  
Chechaklarni bir oz quchay!»

Deya qushcha har yon boqdi,  
Tiniq ko'kda qanot qoqdi.

## **YOSH YO'LCHI**

Yo'lim ko'p uzoq,  
Amalim porloq:  
Orzular toshdi  
Ko'ksimda bu choq.

Quturma, dengiz,  
Hovliqma, dengiz.  
Kichik qayiqni  
Irg'itma, dengiz!

Yosh kuchim tolmas,  
Tilagim qo'rqlas.  
Tog'dek to'lqining  
Yo'limni to'smas.

Yosh ko'ngil toshar,  
Ko'klardan oshar.  
Sevgan yulduzin  
Axtarib quchar.

## **YOZ KECHASI**

Oy nurlari mudraydi  
Yaproqlarning betida...  
Teran sukut shu tunda...  
Ko'nglimga tutashgandir.

So'ngsiz, ulug' koinot,  
Mangu yosh go'zal hayot.  
Yulduzlarning uzoqda  
Oltin kiprigi o'ynar,  
Suyadi, erkalaydi  
Ona kabi meni-da...

## **KO'KLAM HISLARI**

Boshimda olmaning xushbo'y oq guli,  
Ulug' yerni quchib yotibman uyg'oq.

Qulochim yetmasa qalbim yetkusi,  
Insonning qalbiga quyosh jinchiroq.

Daraxtlar ko'tarmish gul qadahchalar  
Ko'klamning, hayotning sog'ligi uchun...  
Yasansa, quzonsa qirlar, bog'chalar,  
Nega mehnat, yerni maqtamay bugun?

Birlashgan mehnat-la texnika va fan,  
Hayot oltinini shaxdam qaziydi.  
Kalxozning har yog'i tutash bir gulshan  
Bu yerda ish — mehnat bir qo'shiq kabi.

Ota-bobolarning xotiralarin  
Bir sukut singari saqlaydi bu yer.  
Faqat maftun etar shoир xayolin  
Qo'ynidagi ko'klam, manglay to'kkан ter.

## NA'MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Yuksakda, shamolning belanchagida,  
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,  
Viqor-la o'shshaygan qoya labida.

Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,  
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun,  
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum.

Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun,  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!  
Poyida yig' laydi kumush qor yum-yum...  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak.

Shamol injularni separ chashmadak  
Boshida bir savat oq yulduz — chechak,  
Nozik salomlari naqadar ma'sum!  
Tog'lar havosining firuzasidan

Mayin tovlanadi butun niholi.  
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:  
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,  
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

## **QORAXAT**

Bexosdan uzilgan shoda dur kabi,  
To‘kildi umidning rangli barglari.  
Osildi bir onda qo‘llar madorsiz,  
Yer qochdi, qoraydi quyosh zarlari...

## **KUZDA**

Ketaman tentirab tanho yo’llarda,  
Daraxtlar go’yoki mash’aldek yoniq.  
Kuz ko‘rkam yashnaydi xil-xil ranglarda.  
Shaftoli barglari yonar oltinday,  
O‘rikda qirmizi yoqut shu'lalar.  
Shu'lalarning raqsi bargda, novdada.  
Suvlar oqar sekin, shishaday tiniq,  
Osmon cho‘kib olgan suvlarga go‘yo.  
Hazoga to‘ymayman, nafasi iliq...  
O, azim chinorlar, naqadar ko‘rkam,  
To‘xtayman o‘ylanib: «Oltinlanibdi,  
Umri asrlardir, ildizi mahkam...»  
Qisqardi kunlar ham, uchadi mezon,  
Alvido, deb qushlar boshladi safar,  
Yaproqlar to‘kilur... yig‘laydi xazon...  
Olmalar yonog‘i qip-qizil yoqut,  
Arava, mashina tashir shaharga,  
O‘zbeklar elida — mo‘l, baraka, qut!  
Toklarda rang-barang totli uzumlar,  
Tillarni yoradi bol kabi shirin:  
Xushbo‘y may ichganday go‘yo tuyular.  
Yuraman xayolda, o‘tar kunduzi,  
Daraxtlar turadi yoniq mash’alday.  
Kechqurun yo‘limda oqshom yulduzi...

## **Savol-javoblar**

1. Oybek qayerda, qanday oilada tug‘ilgan?

J: Toshkentning “Gavkush” mahallasida, hunarmand to‘quvchi oilasida

2. O‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib kim avtobiografik roman janrini boshlab berdi?

J: Oybek

3. Oybekning romanlari...

J: "Navoiy", "Oltin vodiydan shabadalar", "Quyosh qoraymas", "Ulug' yo'l", "Qutlug' qon"

**4. Oybekning qissalari...**

J: "Nur qidirib", "Bolalik xotiralari", "Bola Alisher"

**5. Oybekning dostonlari...**

J: "Qizlar", "Hamza", "Davrim jarohati", "Dilbar- davr qizi", "O'ch", "Mashrab", "Guli va Navoiy", "Baxtigul va Sog'indiq"

**6. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" romanini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?**

J: Oybek

**7. Oybekning ilk she'ri qayerda bosilgan?**

J: "Tong yulduzi" nomli devoriy gazeta

**8. Oybekning adib sifatida shakllanishida kimning ta'siri kuchli bo'lgan?**

J: A.Qodiriyning

**9. "Tog'lar havosining feruzasidan Mayin tovlanadi butun niholi. Vahshiy qoyalarning ajib ijodi". Ushbu misralar qaysi she'rdan olingan?**

J: Oybekning "Na'matak" she'ridan

**10. Oybek "Tog" sayri" she'rida 12 buloqni nimalarga o'xshatadi?**

J: She'rga, bahorga, ko'zga, qizga, piyolaga

**11. Oybekning "Mashrab" dostoni qanday asar?**

J: Lirik doston

**12. Oybek tarjima qilgan asarlarni toping.**

J: "Yevgeniy Onegin", "Maskarad", "Sosunli Dovud"

**13. Oybek qaysi romani qahramonlari haqida: "Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq-tayin ko'rganman, ular mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'sib chiqqandek edilar", - deb yozgan?**

J: "Navoiy" romani

**14."Navoiy" romanining ikkinchi bobida Navoiyga Darveshali bir bino tarhini chizib beradi. Bu qaysi bino edi?**

J: Kutubxona

**15. Oybek "Mashrab" dostonida shoir xarakterining qaysi jihatlariga e'tibor qaratadi?**

J: 1. Mashrabning olov va quyoshga bo'lgan munosabati;

2. Mashrabning shoirligi;

3. Mashrab she'rlarining xalqqa yaqinligi;

4. Mashrab xatti-harakatlarining mantiqqa asoslanganligi.

## **Maktab kutubxonalarida o'tkazilishi mumkin bo'lgan tadbirlar turkumi**

### **Davra suhbati**

1. "Yuksak iste'dod sohibi"
2. "Xalq sevgan adib"
3. "Oybek ijodiga nazar"

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Oybek Bolalik: Qissa.- Т.:”Sharq”,2014
- 2.Ойбек. Созим:Лирика – Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти,1980
- 3.Ойбек Мусо Тошмухаммад ўғли. Муқаммал асарлар тўплами. 19 томлик Т.: “Фан”,1980
- 4.Oybek.”Navoiy” Т.:”Navro‘z”,2019
5. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)

